

Q. YO`LDOSHEV, B. QOSIMOV, V. QODIROV, J. YO`LDOSHBEKOV

ADABIYOT

O‘zbekiston Respublikasi umumiy o‘rta ta’lim maktablarining
7-sinfi uchun darslik-majmua

TOSHKENT — 2005

BADIIY SO‘Z QUDRATI

Ilohiy kitoblarda aytilishicha, **SO‘Z** dunyodagi barcha narsalarning asosidir. Rivoyat qiladilarki, Tangri o‘zining qudrati va go‘zalligiga ko‘zgu bo‘ladigan yaratq barpo etishni istaydiyu kunlarning birida: "Yaral!" (arabchasi "Kun!")-degan so‘zni aytadi. Yaratgan amrining ifodasi bo‘lmish ana shu birgina SO‘Zning kuchi bilan o‘n sakkiz ming olam va undagi jamiki narsalar dunyoga keldi. Demak, so‘z olam va undagi narsalardan oldin paydo bo‘lgan ekan. So‘zning cheksiz qudratini shundan ham bilsa bo‘ladi. Har qanday inson hayotida juda katta ahamiyat kasb etadigan badiiy adabiyot ana shunday qudratga ega so‘z bilan ish ko‘radigan san’at turidir. Shuning uchun ham badiiy adabiyot — so‘z san’ati deb yuritiladi.

Badiiy adabiyot san’atning murakkab va serqirra turidir. Insondagi ismsiz tuyg‘ular, nozik kechinmalar, ko‘z bilan ko‘rib, quloq bilan eshitib, qo‘l bilan ushlab, til bilan totinib, burun bilan hidlab bo‘lmaydigan ruhiy holat jilavlarini faqat so‘z yordamida ifoda etish mumkin. Badiiy adabiyot san’atning boshqa turlaridan asosiy ish quroli ham, asosiy materiali ham **SO‘Z** ekanligi bilan ajralib turadi.

San’atning adabiyotdan boshqa har qanday turi inson hayoti yoki hissiyotining faqat birgina holatini ifoda eta oladi. Badiiy adabiyot esa tasvirlanayotgan narsa yoki kimsaning hozirgi holatini qanchalik ishonarli aks ettirsa, uning o‘tmishini ham, kelajagini ham shunchalik ta’sirchan va jonli tasvirlay oladi. Siz teatr, kino, televideniya ham shunday imkoniyatlar bor-ku deyishingiz mumkin. Unutmangki, har qanday spektakl, kino yoki telefilmlarning asosida ham badiiy so‘z turadi.

Badiiy adabiyotda aks ettirilgan hayot serqirraligidan tashqari o‘qigan kishiga qattiq ta’sir ham ko‘rsata oladi. O‘zingizga juda yoqqan badiiy asarni o‘qigan holatingizni bir eslab ko‘ring. Asarda tasvirlangan obrazlarning ham, bu qahramonlar kechirgan tuyg‘ularning ham sizga to‘g‘ridan-to‘g‘ri daxli yo‘qligini yaxshi bilasiz. Asardagi voqealar hozir ro‘y bermayotganligi, buning ustiga, ularning sizga sira aloqasi yo‘qligini ham ko‘rib turibsiz. Lekin siz asardan bosh ko‘tara olmaysiz. Asar qahramonlari sizga hech kim bo‘lmaslarda, ular bilan go‘yo taqdirdoshday bo‘lib qolasiz. Ularning tuyg‘ulari, kechinmalari o‘zingiznikiga aylanib ketadi. Kitob qahramonlariga qo‘shilib quvonasiz yoki kuyunasiz. Ba’zan hatto yig‘laysiz. Nega shunday? San’atning boshqa turlari ham odamga shu xilda ta’sir qilganligini ko‘rish mumkin. San’at asarlari ta’sirchanligiga sabab nima ekan?

Mana, siz yettinchi yildirki bir qancha o‘quv predmetlari bilan tanishmoqdasiz. Ularning hammasi ham sizga cheksiz olamning biror tarmog‘idagi hodisalar haqida ilmiy ma’lumotlar berishga intiladi. Bu o‘quv fanlari sizning aqlingizni o‘stirishga, tafakkuringizni yangi-yangi axborotlar bilan boyitishga, shu tariqa sizni zamonning talablariga javob bera oladigan, hayotning sinovlariga chidaydigan qilib tayyorlashga xizmat etadi. Siz o‘rgangan o‘quv predmetlari yordamida dunyoning sirlari haqida bilimga ega bo‘lasiz.

Badiiy asarlar ham sizning aqlingizni o‘stirishga xizmat qiladi. Lekin ular aqlingizdan ham ko‘ra ko‘proq hissiyotingizga, tuyg‘ularingizga ta’sir qiladi. Badiiy asar yuragingizni bezovta qiladi. Sizni loqaydlikdan xalos etadi. O‘zgalarning tuyg‘ulariga sherik bo‘lishga odatlantiradi. Kitob varaqlari ichida yashayotgan qahramonlarning holatiga befarq bo‘lmaydigan odam atrofidagi tirik kishilarning quvonchu g‘amlariga loqayd qarab tura olmaydi. Nima uchun badiiy asarlardagi qahramonlarning tuyg‘ulari, kechinmalari bizga o‘tadi, "yuqadi"? Biror qiziqarli badiiy asarni o‘qigan kitobxon: "Ha, hayotda shunaqasi ham bo‘lar ekan-da," — deb qo‘ya qolmaydi. U qaysidir qahramonni yaxshi ko‘rib qoladi va unga o‘xshagisi keladi. Boshqa bir qahramonni esa yomon ko‘rib qoladi hamda unga o‘xshamaslikka intiladi. Asar ta’sirida bir muddat o‘yga cho‘madi.

Siz bultur o‘rgangan „Materik va okeanlar tabiiy geografiyasi“, bu yil o‘qiydigan „O‘zbekiston tabiiy geografiyasi“ singari darsliklarda kecha va kunduz, uning eng go‘zal hamda so‘lim fursati bo‘lmish tong to‘g‘risida, ona Yerni nurlari bilan turli tomondan yorituvchi Quyosh haqida ancha ma’lumot beriladi. Quyosh bo‘lmasa, yerda hayot bo‘lishi mumkin emasligi ham aytiladi. Bu ma’lumotlar sizning bilimlaringizni ko‘paytirishga ta’sir qiladi. Ular tufayli kecha, kunduz, tong va hokazolar borasida oldin bilmagan narsalaridan xabardor bo‘lasiz. Ayni vaqtda, Sizda tong payti juda go‘zal bo‘lishi haqida tushuncha ham paydo qilinadi. Lekin bu tushuncha va axborotlar tafakkuringizni o‘stirsa ham hissiyot va tuyg‘ularingizga deyarli ta’sir qilmaydi. Endi shoir Rauf Parfining „Tong otmoqda...“ deb nomlangan she’ridan bir parchani o‘qib ko‘raylik:

Tong otmoqda. Tong o‘qlar otar,
Tong otmoqda, quyosh—zambarak.
Yaralangan Yer shari yotar,
Boshlarida yashil chambarak.

Shoir tong otishi qanday sodir bo‘lishini batafsil tasvirlab, nima uchun shunday bo‘lganligini tushuntirib berayotgani yo‘q, balki mavjud hayotiy holatning badiiy manzarasini yaratmoqda. Bu manzarada tabiatshunoslik yoxud geografiya ilmidagi axborotlarda bo‘lmagan bir narsa bor: u ham bo‘lsa, shoirning tuyg‘ulari, kechinmalari! Shoir tong otish jarayonini juda go‘zal tasvir etadi. O‘quvchini ham tongning chindan-da chiroyli otishiga ishontiradi. Quyoshning zambarak bo‘lib, „o‘qlar (nurlar)“ otishi, o‘sha nurlardan Yerning yaralanishi va bu yaralanish tufayli o‘lim emas, balki boshida „yashil chambarak“, ya’ni hayot paydo bo‘lishi juda ham o‘ziga xos, ta’sirchan ifodalangan. Ayni damda, she’rda ma’lum darajada ilmiy axborot ham yo‘q emas. U o‘quvchiga tabiat hodisalari to‘g‘risida qandaydir ma’lumotlar ham beradi.

Chor Rossiyasi tomonidan bosib olingan ota yurtimiz Turkistonning ozodligi yo‘lida kurashgan kishilarni bolsheviklar qanday shafqatsizlik bilan qirganligi, o‘lka nechog‘lik oyoqosti etilganligi to‘g‘risida tarixchi olim shunday yozadi: „*Butun Turkiston o‘lkasida 1918 yildan*

XOTIMA O‘RNIDA

Aziz o‘quvchi! Mana, siz bilan xayrlashuv vaqti ham keldi. Siz o‘quv yili davomida bir qancha she‘rlar, dostonlar, hikoyalar, qissalar va hatto romandan olingan parcha bilan ham tanishdingiz. Ularda tasvir etilgan qahramonlar hayoti bilan oshno bo‘ldingiz. Yil davomida ularning tashvishiga sherik bo‘ldingiz, quvonchlarini ham baham ko‘rdingiz. Shu tariqa, siz boshqalarni tushunishga, ularning shodligu g‘amlarini anglashga bir qadar odatlandingiz. Sizning badiiy adabiyot borasidagi bilimlaringiz ham bu yil o‘zlashtirib olgan nazariy ma‘lumotlar hisobiga sezilarli darajada boyidi. Siz, avvallari, faqat o‘qituvchingiz aytgan narsalarnigina o‘qishga o‘rgangan bo‘lsangiz, endilikda o‘zingiz mustaqil ravishda kitoblar tanlay boshladingiz. Chunki siz mustaqil o‘qish qanday amalga oishrilishidan xabardor bo‘lib bormoqdasiz.

Bizni umidlantirgan eng muhim narsa: o‘rgatilayotgan har bir asar yuzasidan siz yil davomida mustaqil fikrlashga, o‘z tushunchalaringizni bayon etishga harakat qildingiz. Mustaqil fikrlay olish har bir odam uchun erishishi zarur bo‘lgan yuksak marradirki, siz shu yo‘lga dadil qadam qo‘ydingiz. Sizga darslikda keltirilgan asarlar yuzasidan na mualliflarning, na o‘qituvchilarning tayyor xulosalari berilgan. Siz bu xildagi xulosalarni o‘zingiz chiqarishga intildingiz. O‘ylaymizki, siz badiiy asarga yondashish yo‘llarini, uni tahlil qilish yo‘riqlarini ancha o‘rganib oldingiz.

O‘quv yili davomida turli janrlardagi qiziqarli badiiy asarlar bilan o‘qituvchilaringiz rahbarligida mustaqil ishladingiz. Bu bizni juda quvontiradi. Adabiyot — siru sinoatga boy bir dunyo. Uning hali siz bilmaydigan, lekin bilmasangiz hayotingiz kemptikroq bo‘lib qoladigan jihatlari juda ko‘p. Demak, siz yanagi o‘quv yilida ham badiiy adabiyot bilan astoydil shug‘ullanishingiz kerak bo‘ladi. Go‘zal badiiy so‘z zamiridagi yashirin ma‘nolarni ochishning yangi bosqichiga kirasiz. Bu yo‘lda sizga omad yor bo‘lsin!

O‘quv yili davomida doimiy hamroh bo‘lgan ushbu darslik sizda qanday taassurot qoldirdi? Sizga yoqdimi? Qaysi asarlar, nima uchun o‘ziga rom etdi? Ehtimol, ko‘nglingizga unchalar o‘tirishmagan, tushunilishi og‘irroq bo‘lgan mavzular ham bordir. Demak, sizga yoqinqiramagan asarlar ham bo‘lishi mumkin. Shular haqida o‘qituvchingiz bilan fikrlashing. Qarashlaringizni isbotlashga harakat qiling. Buning uchun darslikdagi yaxshi va yomon jihatlarni aniq ko‘rsatib bering.

Umid qilamizki, siz ta‘til vaqtida ham bekor yurmaysiz. Badiiy adabiyot bilan tillashib borasiz. Kitob o‘qib, tengdoshlaringiz bilan ular haqda fikrlashasiz. Sakkizinchi sinfga badaningiz chiniqib, aqlingiz peshlanib, yuragingiz poklanib sog‘-omon kelasiz. Ta‘tilingiz ko‘ngilli o‘tsin! Sakkizinchi sinfdan uchrashguncha omon bo‘ling!

MUNDARIJA

Badiiy soʻz qudrati.....	2
--------------------------	---

KOʻZIM QAROGʻIDASAN, VATAN!

Hamza Hakimzoda Niyoziy	8
Sheʼrlar	10
<i>Maʼrifat – vatan erkining yoʻli</i>	17
Muhammad Ali	21
Gumbazdagi nur	24
Umar Sayfiddin	39
Naqorat	40
Shavkat Rahmon	51
Sheʼrlar	53
<i>Tabiat lirikasi</i>	62

OʻYLARIMNING CHEKSIZ OSMONI

Shukur Xolmirzayev	64
Oʻzbeklar	65
Rauf Parfi	84
Sheʼrlar	85
<i>Rauf Parfi sheʼrlari toʻgʻrisida</i>	92
Omon Matjon	94
Sheʼrlar	95
<i>Omon Matjon sheʼrlari haqida</i>	103
Umar Xayyom	105
Ruboiylar	106
<i>Umar Xayyom ruboiylari toʻgʻrisida</i>	108

MUQADDAS TUYGʻUNING JILVASI

Ravshan (dostondan parcha)	112
<i>„Ravshan“ dostoni haqida</i>	133
<i>Badiiy obraz haqida</i>	136
Atoyi	138
Gʻazallar	141
<i>Sheʼriy sanʼatlar — gʻazal koʻrki</i>	146
Abdulla Qodiriy	151
Qoʻrqinch bir jasorat (“Mehrobdan chayon” romanidan)	152
Hamid Olimjon	174
Sheʼrlar	174
<i>Hamid Olimjon sheʼrlari haqida</i>	177
Zulfiya	179
Sheʼrlar	180
<i>Lirika haqida</i>	185

SO‘Z – HIKMAT, SO‘Z — QUROL

Turdi Farog‘iy	187
She‘rlar	187
<i>Millatni birlikka chorlagan shoir</i>	194
Abdulla Qahhor	196
O‘g‘ri	196
Dahshat	199
Maxmur	207
She‘rlar	208
<i>Maxmur hajviyoti haqida</i>	211
Jahon otin Uvaysiy	214
She‘rlar	215
<i>Chiston haqida</i>	218
<i>Qofiya va radif haqida</i>	219
Mirtemir	221
She‘rlar	222
Rasul Hamzatov	231
She‘rlar	232

HAQIQATDIR MENING YULDUZIM

Alisher Navoiy	236
„Hayrat ul-abror“ asaridan.....	239
“Salotin bobida” maqolati.....	242
„Salotin bobida“ maqolati haqida	250
„Shoh G‘oziy“ hikoyati.....	253
„Shoh G‘oziy“ hiloyati haqida	257
“Sab‘ai sayyor” dostonidan.....	258
<i>Tashbih, tanosub, irsoli masal haqida</i>	301
Cho‘lpon	304
She‘rlar	305
<i>Ko‘chim haqida</i>	311
Usmon Nosir	314
She‘rlar	316
<i>Usmon Nosir she‘rlari haqida</i>	318
<i>Badiiy adabiyotning turlari</i>	321
Xotima o‘rnida.....	324